MAHALLIY BUDJET XARAJATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xudoynazarov Akmal Tog‘ayevich
Master's student of the Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan

Received: 13.09.2025
Revised: 14.09.2025
Accepted: 15.09.2025

Keywords:
budget, local budget, cost, efficiency, cost efficiency, population welfare, economic growth, income.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the economic activity and profit-based operation of economic entities in the context of the transition to a market economy, their role in state finance and their relationship with the budget system. The main attention is paid to the structure of the budget system of the Republic of Uzbekistan, its sources of formation, levels and management mechanisms. The unitary, federal and confederal forms of the state budget structure are analyzed based on international practice, and the budget system of Uzbekistan as a unitary state is highlighted with its specific aspects. The relationship between the republican and local budgets, their revenue and expenditure potential, interbudgetary transfers, subsidies and subventions are thoroughly analyzed. The difference between economically leading and regions in need of financial assistance is also highlighted..

Kalit so‘zlar:
budjet, mahalliy budjet, xarajat, samaradorlik, xarajatlar samaradorligi, aholi farovonligi, iqtisodiy o‘sish, daromad.

Annotatsiya. Mazkur maqola bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyati va foyda asosida ishlashi, ularning davlat moliyasidagi o‘rni hamda budjet tizimi bilan bog‘liqligi keng tahlil etilgan. Asosiy e’tibor O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilmasiga, uning shakllanish manbalari, darajalari va boshqaruv mexanizmlariga qaratilgan. Davlat budjeti tuzilmasining unitar, federativ va konfederativ shakllari xalqaro amaliyot asosida tahlil qilingan hamda O‘zbekistonning unitar davlat sifatidagi budjet tizimi o‘ziga xos jihatlari bilan yoritilgan. Respublika va mahalliy budjetlarning o‘zaro munosabatlari, ularning daromad va xarajat salohiyati, byudjetlararo transfertlar, dotatsiya va

subvensiyalar masalalari asosli tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan yetakchi va moliyaviy yordamga muhtoj hududlar o‘rtasidagi farq ham yoritilgan.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida juda ko‘p xo‘jalik subektlari o‘z faoliyatini tijorat asosida tashkil etadilar. Ularning moddiy harajatlari va mexnat jamoalariga ish xaqi to‘lash hamdaularni ijtimoiy himoya qilish harajatlarini qoplashning yagona manbai foyda hisoblanadi. Bunday omillar ta’sirida davlat vakolatli organlarining asosiy manfaati, foyda ko‘rib, faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik subektlarini rivojlantirishga yordam berish hisoblanadi. Ushbu xo‘jaliksubektlarining faoliyati natijasida milliy daromad yaratiladi. Ular ixtiyorida juda katta pul mablag‘lari jamg‘armalari aylanishi amalga oshiriladi. Natijada, markazlashgan moliya bo‘g‘inlari kerakli pul mablag‘lari (soliqlar, turli yig‘imlar shaklida) bilan ta’minlanadi.

Budjet tizimining asosiy bo‘g‘ini - markazlashgan budjet hisoblanadi. Bunda moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulotva milliy daromadni taqsimlash hamda qayta taqsimlash natijasida, markazlashgan pul mablag‘lari resurslari shakllantiriladi. Davlat ixtiyorida bunday markazlashgan pul mablag‘lari resurslarining jamlanishi, eng avvalo, mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish faoliyati bilan bog‘liqdir. Markazlashgan pul mablag‘lari resurslarining shakllari davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg‘armalar hamda davlat krediti hisoblanadi.

Har bir alohida olingan mamlakatlarda davlat budjeti tuzilmasi va budjet tizimi mavjud. Budjet tuzilmasi mazkur davlatning siyosiy- ma’muriy tuzilmasiga asosan shakllantiriladi. Davlat budjeti tuzilmasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat budjetini tuzish tamoyillarini, uni tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, va ijro etish tartibini, budjet daromadlarini shakllantirish, uning harajatlarini amalga oshirish tamoyillarini tashkil etishni ifodalaydi.

Iqtisodchi olimlar o‘rtasida davlat budjeti tuzilmalarining shakllari to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Biz ilmiy tadqiqotimizda ushbu qarashlarni tahlil etishga harakat qilamiz. Iqtisod fanlar nomzodi, dotsent S.S.Gorbushinaning fikricha, xalqaro amaliyotda ikki shakldagidavlat budjeti tuzilmalari mavjud:

- unitar davlatlar budjet tuzilmasi;
- federativ davlatlar budjet tuzilmasi (Finansi. Uchebnik. pod.red. prof. V.V. Kovaleva. - M.: «Prospekt». - 2008. - 187 S.).

Xuddi shunday fikrni iqtisod fanlari doktori, professor B.V.Markina ham qo‘llab quvvatlaydi. Uning fikricha, davlat budjeti tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- unitar davlatlarda ikki bo‘g‘inli, ya’ni markaziy va mahalliy budjetlardan iborat budjet tuzilmasi;

- federativ davlatlarda uch bo‘g‘inli, ya’ni federal, xududiy (respublikalar, shtatlar, viloyatlar) va mahalliy budjetlardan iborat budjet tuzilmasi mavjudligini ko‘rsatib o‘tgan (Finansi. Uchebnik. pod.red.prof. A.G.Gryaznovoy. - M.: «Yurayt». - 2007. - 314 S.).

Davlat budjeti, uning mohiyati, vazifalari muammolari to‘g‘risida izlanishlar olib borib iqtisod fanlari doktori, professor B.G.Boldirev, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent N.M.Yarsevalar ham xalqaro amaliyotda ikki shakldagi davlat budjet tizimi mavjudligini e’tirof etadilar. Davlat budjeti bo‘yicha yetakchi mutaxassis, iqtisod fanlari doktori, akademik G.B.Polyak ushbu qarashlarnichuqur tahlil etgan xolda xalqaro amaliyotda uch shakldagi davlat budjeti tuzilmasi mavjudligini e’tirof etadi.

- unitar davlatlardagi ikki bo‘g‘inli, o‘z ichiga davlat va mahalliy budjetlardan iborat budjet tuzilmasini olgan;
- federativ davlatlardagi uch bo‘g‘inli, o‘z ichiga federal budjet, federatsiyaa’zolari budjeti va mahalliy budjetlardan iborat budjet tuzilmasini olgan;

- konfederativ davlatlardagi konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar budjetiva ularning badallari hisobiga shakllanadigan konfederativ budjetdan iborat budjet tuzilmasini olgan (Finansi. Uchebnik. pod.red. prof G.B.Polyaka- M.: «YUNITI – DANA». - 2007. - 58 S.).


O‘zbekiston Respublikasi unitar davlat bo‘lgani sababli biz ushbu tuzilmani tahlil etamiz. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi 2000yil 14 dekabrda qabul qilingan № 158 – II sonli «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunga asosan faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu qonunga asosan, “Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi” (O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining kassa ijrosiga oid qonunchilik xujjatlari to‘plami. – T.: «O‘zbekiston» - 2008. - 8 B.). Har qanday budjet tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun uning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti tuzilmasi tarkibiga respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar va davlat maqsadli budjetdan tashqari jamg‘armalari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetini hamda tumanlar va respublikaga (Qoraqalpog‘iston) bo‘ysunuvchi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Viloyatning budjeti viloyat budjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjetini va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Biz O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy tuzilishiga asoslangandavlat budjeti tuzilmasini quyidagi rasmda keltiramiz.

Mamlakatimiz budjet tizimining asosiy prinsiplaridan biri budjet tuzilishining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-xududiy tuzilishiga muvofiqligi hisoblanadi. Davlatning joylardagi vakolatli organlari o‘z faoliyatini olib borish uchun o‘z mahalliy budjetiga egadirlar. Mahalliy budjet- davlat budjetining tegishli viloyat, tuman,shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutilgan budjetdir.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tuzilmasi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar respublikamiz qonunchiligiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimiyati vakillik organlari tomonidan qabul qilinishi uchun taqdim etiladi hamda ularningijrosi to‘g‘risida tegishli hisobotni tuzadilar.

Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi xududlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va eng muhimi, moliyaviy salohiyati bilan ajralib turadi. O‘zbekistondagi ko‘plab iqtisodchi olimlarning fikricha, mamlakatimizda oltita xudud budjet harajatlarini o‘z budjet daromadlari bilan ta’minlay oladi. Ushbu xududlarga quyidagilar kiradi: Toshkent shaxri, Buxoro, Navoiy, Toshkent, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlari. Respublikaning qolgan 8 ta xududlari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari o‘zlarining budjet harajatlarini budjet daromadlari bilan to‘liq ta’minlash imkoniyatiga ega emaslar.

Ushbu xudud mahalliy budjetlarining harajatlari va daromadlarini balanslashtirish uchun respublika budjetidan transfertlar, dotatsiyalar va subvensiyalar ajratiladi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan, mahalliy budjetlarda budjet taqchilligiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat budjetida barcha budjet taqchilligi ko‘zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.

2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.

3. Brealey R.A., Mers S.S. Prinsiples of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.

4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol objest. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.

5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.

7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.

9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik

tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.